

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BERDIYEVA GUZAL NIZOMJON QIZI

**NARRATIV TUZILMALARDA TEMPORAL VA
ASPEKTUAL SEMANTIKANING VOQELANISHI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Berdiyeva Guzal Nizomjon qizi

Narrativ tuzilmalarda temporal va aspektual semantikaning voqelanishi
(Ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Бердиева Гузал Низомжон кизи

Реализация темпоральной и аспектуальной семантики в нарративных
структурах (на примере английского и узбекского языков)..... 23

Berdiyeva Guzal Nizomjon kizi

Realisation of temporal and aspectual semantics in narrative structures
(on the example of English and Uzbek languages) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BERDIYEVA GUZAL NIZOMJON QIZI

**NARRATIV TUZILMALARDA TEMPORAL VA
ASPEKTUAL SEMANTIKANING VOQELANISHI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4128 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdchti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mirsanov G'aybullo Qulmurodivich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Suleymanova Nilufar Jabbarovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor


Yusupova Shoira Botirovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62976 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "9" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "9" aprel dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida narrativ matnni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish, narrativlikni tashkil etuvchi grammatik, leksik vositalarni turli tillar kesimida qiyosiy tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Narrativ matnni ma'no va mazmunan bog'lovchi vositalarning sintaktik, semantik, kognitiv xususiyatlarini ta'minlovchi birliklarning qiyosiy tahlili dolzarblik kasb etmoqda. Narrativ matn tarkibiy qismlarini hosil qiluvchi temporal vositalarning ahamiyati, narrativlikda zamon va makon mazmunining rolini aniqlash, qiyoslanayotgan tillarda narrativ matn hosil bo'lishida o'ziga xos qonuniyatlarni aniqlash imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir. Narrativlikdagi temporal va aspektual vositalarning struktur-semantik, grammatik hamda funksional-semantik maydonda faollashishini aniqlash, chog'ishtirish tilshunoslik sohasidagi masalalar qatoriga kiradi.

Dunyo tilshunosligida narrativ matn tarkibini shakllantiruvchi birliklarning funksional xususiyatlarini ilmiy-nazariy, kognitiv, pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish matnshunoslik, semantika sohalari uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda, narrativ matn tarkibini shakllantiruvchi grammatik, leksik vositalar, sintaktik tuzilmalarning matn semantikasi va matn pragmatikasidagi o'rni funksional-semantik jihatdan hamda qiyosiy tadqiqi zaruratga aylangan. Chunki turli lisoniy sathlariga tegishli bo'lgan birliklarning bir-biri bilan bog'lanishi va yaxlit hikoya matnini yaratishdagi omillarni belgilash va taqqoslash muhim hisoblanadi. Narrativ matnni stilistik, pragmatik jihatlari keng muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, temporal va aspektual birliklarning ifodalanish xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganish va ularning funksional vazifalari tadqiq etish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bilan hamohang ravishda o'zbek tilshunosligida ham turli lisoniy sathlarni boshqa tillar bilan chog'ishtirish orqali zamonaviy tilshunoslik tadqiqot sohalari, til tadqiqiga innovativ yondashuvlar asosida keng ko'lamli izlanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd etganidek "O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi¹. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnning stilistik, leksik-grammatik xususiyatlari, pragmatik matndagi vazifalari, mazmuniy tarkibi, narrativlikning lingvomadaniy xususiyatlariga oid umumnazariy qarashlar, turli vazifaviy o'rganish, narrativlikning turli aspektlari tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo narrativ matnni shakllanishida temporal vositalarning o'rni, predikatlar ifodalaydigan aspektual semantikaning narrativlikdagi voqelanishi, narrativ matnni lingvo-madaniy jihatlarni yoritishda qayd etilgan vositalarning vazifalarini ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tadqiq etish ustuvor vazifalar jumlasiga kiradi. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar matnning shakli va hajmi, makon va zamondagi voqeliklarni nutqiy vaziyat bilan bog'lab o'rganish hamda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-oktabr kunidagi O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 20 yilligiga bag'ishlangantantanal marosimidagi nutqi. Toshkent. 2018. Xalq so'zi gazetasi N: 218. – 2 b.

ushbularni turli til narrativlik uslubidagi farqli belgilarini aniqlash, taqqoslash dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Diskursiv tahlil va matn semantikasi” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirda narrativ matn va uning tarkibi, narrativ matnni hosil qiluvchi lisoniy vositalar, matn birliklari mohiyatini tadqiq etish borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Bu borada jahon tilshunosligida G.N.Lich, N.S.Valgina, A.G.Gurochkina, M.M.Baxtin, C.Emerson and M.Holquist, M.Fludernik, K.A.Dolinin, G.D.Axmetova, N.G.Babenko, L.V.Lisochenko, Y.M.Lotman, A.Mamajounov, D.Muhammedova, N.Q.Turniyozov, B.Yo‘ldoshev keng qamrovli tadqiqotlar olib borilganligini e’tirof etish joiz². Narrativlikni alohida lingvistik hodisa sifatida o‘rganishga esa³

²Leech G.N. Principles of pragmatics. – London, New York: Longman, 1983. – 250 p; Валгина Н.С. Теория текста: Учеб.пособие. – Москва: Логос, 2003. – 280 с.; Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. – Рязань: Изд-во РГПУ, 1999. – С. 13-47; Bakhtin M.M. The dialogic imagination. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 434 p.; Fludernik M. Genres, text-types, or discourse modes? //Narrative modalities and generic categorization. Style, 34 (1), 2000. – P. 274-292; Долинин К.А. Интерпретация текста. – Москва: Просвещение, 1985. –278 с.; Ахметова Г.Д. Тайны художественного текста. – Москва: Магистр, 1997. – 213 с.; Бабенко Н.Г. Окказиональное в художественном тексте: Структурно-семантический анализ: Учебное пособие. – Калининград: Изд-во КГУ, 1997. – 79 с; Лисоченко Л.В. Лингвистический анализ художественного текста: Учеб. пособие. – Таганрог: ТГПИ, 1997. – 223 с.; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 387 с.; Мухамедова Д.

E.Mertz, S.Brigs, H.Abbot, N.Norrik, G.Strovson, M.Baynham, E.V. Paducheva, T.I.Ryazanseva, SH.Shaxobiddinova, Z.Isoqov, D.Muxammedova kabilarning tadqiqot ishlari, izlanishlari misol bo'la oladi. Tilshunoslikda narrativ matnni sintaktik va semantik sathda o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Aspektuallik va temporallik borasida olib borilgan ishlarning aksariyati predikat doirasida grammatik hamda semantik sathlarda amalga oshirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu sohalaridagi jahon va mahalliy tadqiqotchilar ma'lum bo'lgan funksional semantik maydon va kompozitsionallik yondashuvlari asosida V.Evans, D.Douti, R.David, R.Deklerk, B.A.Maslov, T.B.Matveyeva, E.B.Paducheva, B.X.Rizayev, G'.Q.Mirsanov o'z tadqiqotlarini bajarishgan⁴. Bevosita matnning temporal tarkibi va aspektual semantikasi bo'yicha sanoqli ishlarni keltirish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi narrativ matn tarkibiy qismlarini aniqlash, unda temporal va aspektual semantikaning faollashuvini ingliz va o'zbek tillari qiyosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

narrativ matnga oid nazariy yondashuvlarni tizimli ravishda sharhlash hamda jahon va o'zbek tilshunosligidagi narrativ matn nazariyasining talqini, narrativlikni hosil qiluvchi vositalar borasidagi qarashlarni umumlashtirish;

ingliz va o'zbek narrativ matnlarida temporal vositalarning turlari, vazifalari bilan bog'liq funksional–semantik jihatlarni yoritish;

ingliz va o'zbek narrativ matnlarida makon va zamon voqelanishini ta'minlovchi lisoniy birliklarning vazifalarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida aspektual semantikaning narrativ matndagi vazifalarini belgilash, pragmatik jihatdan bog'lovchi vositasi ekanligini asoslash,

Микроматн кўринишида кесимларнинг тенг алоқага киришуви // Ўзбек тили ва адабиёти. №6. – Тошкент, 2004. – Б. 90-91; Турниёзов Н.Қ. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ 2-нашри, 2003. – 86 б; Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари: Услубий қўлланма. – Самарқанд, 2008. – 78 б.;

³Mertz E. Consensus and dissent in U.S. legal opinions // Narrative structure and social voices. -Oxford: Oxford University Press, 1996. – P. 135-157; Abbott H.P. The Cambridge Introduction to Narrative. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 392; Norrick N. Twice-told tales: Collaborative narration of familiar stories // Language in Society, 26, 1997. – P. 199-220; Strawson G. Against narrativity // Ratio, 17 (4), 2004. – P. 428-452; Baynham M. Stance, positioning, and alignment in narratives of professional experience // Language in Society, 40, 2011. – P. 63-74; Падучева Е. В. Семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива // Семантические исследования. – Москва: Языки славянской культуры, 1996. – С. 286-295; Рязанцева Т.И. Гипертекст и электронная коммуникация. – Москва: ЛКИ/ URSS, 2010. – 256 с.; Шахобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири // Ўзбек тили ва адабиёти, №6. – Тошкент, 2004. №6. – Б. 75-76; Мухамедова Д. Микроматн кўринишида кесимларнинг тенг алоқага киришуви // Ўзбек тили ва адабиёти. №6. – Тошкент, 2004. – Б. 90-91.

⁴Evans V. Language and Time. A Cognitive Linguistics Approach. Cambridge. -United Kingdom: Cambridge University Press, 2013. – 523 p.; Dowty D.R. The Effects of Aspectual Class on the Temporal Structure of Discourse: Semantics or Pragmatics? // Linguistics and Philosophy, vol. 9, 1986. – P. 37–61; Declerck R. Tense in English // Its structure and use in discourse. – London, 1991. – P. 154 – 158; Маслов Б.А. Проблемы лингвистического анализа связного текста: Уч. пособие. – Таллин, 1975. – 104 с.; Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий. – Свердловск, 1990. – 168 с.; Падучева Е. В. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива. – Москва: Языки славянской культуры, 1996. – 224 с.; Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: Фан, 1999. – 121 с.; Мирсанов Ф.Қ. Юриш харакат фелларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари: Филол. фан.номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 21 б.

fe'l-kesimlarning narrativ gaplar orasidagi bog'lovchilik rolini funksional jihatdan ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek narrativ matnlaridagi temporal vositalar va ularning aspektual semantikasi tanlangan.

Tadqiqot predmetini predikatlarning narrativ matn tarkibiy qismlarini bog'lashdagi o'rni va ahamiyatini hamda pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tavsifiy, assotsiativ, komponent, funksional-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

jahon va o'zbek tilshunosligidagi narrativ matn nazariyasining aspektual hamda temporal tomonlari ochib berilib, shu asosda narrativlikni hosil qiluvchi predikatlarning uyishib kelishi, aspektual semantika kabi vositalarning narrativ matndagi kogeziya va kogerantlik funksional ko'rinishlari ochib berilgan;

qiyoslanayotgan tillaridagi narrativ matnlaridagi aspektual semantikani shakllantiruvchi birliklar pragmatik jihatdan presuppozitiv hamda deytik vazifalarni bajarishi semantik jihatdan bog'lovchi vosita ekanligini, fe'l-kesimlarning narrativ gaplarda voqea-hodisalarni funksional xususiyatini namoyish etishi dalillangan;

ingliz va o'zbek narrativ matnlarida faollashadigan now, then, at the moment, hozir, o'shanda, ayni damda kabi temporal vositalarning turlari, ularning anaforik, kataforik, egzoforik vazifalari bilan bog'liq davomiylik, perfektiv, imperfektiv kabi funksional-semantik jihatlari isbotlangan;

narrativ matnlarida makon va zamon voqelanishini ta'minlovchi lisoniy birliklarning (here, there, during, for two hours, u yerda, shu yerda, davomida) kataforik, anaforik kabi deytik vazifalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

narrativ matn tarkibiy qismlaridan bo'lgan zamon va makon voqelanishining funksional xususiyatlari bilan bog'liq to'plangan materiallar, qo'yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida kelingan xulosalar narrativ matnning mazmuniy jihatiga ta'sirini oshirishga, oliy ta'limda o'tiladigan "Nazariy grammatikaning dolzarb masalalari", "Matn lingvistikasi", "Pragmalingvistika", "Kognitiv lingvistika", "Kommunikativ lingvistika", "Semantika" kabi fanlardan yaratiladigan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot natijasida olingan xulosalar hozirgi zamon tilshunoslik fani rivoji uchun zarur bo'lgan o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishi va tilshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishda muhim ma'lumot bo'lib xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada foydalanilgan ilmiy ma'lumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar semantik-funksional, qiyosiy-tavsifiy, assotsiativ, komponent tahlil metodlariga asoslanganligi, tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi,

olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida narrativ matn tarkibiy qismlaridan bo'lgan temporallik va aspektuallik borasidagi nazariyalar badiiy adabiyotlardan, gazeta va jurnallardan olingan misollar yordamida tahlil qilindi hamda ular ingliz va o'zbek tillari misollari asosida qiyoslangan, shuningdek, jahon tilshunosligida narrativ matn tarkibiy qismlarida temporallik va aspektuallik bo'yicha qilingan ishlar o'zbek tiliga tatbiq etilgan, bu ishning nazariy jihatdan qiymatini belgilaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natija va xulosalaridan ta'lim tizimida, xususan, bakalavr talabalar uchun va magistrantlar uchun "Matn tilshunosligi", "Nazariy grammatikaning dolzarb masalalari", "Pragmalingvistika" kabi kurslarda, shuningdek, ta'limning quyi bosqichlarida ham badiiy matnni tushuntirish va tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Narrativ tuzilmalarda temporal va aspektual semantikaning voqelanishi tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

narrativ matnga oid nazariy yondashuvlar tizimli ravishda sharhlanib, jahon va o'zbek tilshunosligidagi narrativ matn nazariyasining talqini ochib berilishi, shu asosda narrativlikni hosil qiluvchi vositalarning narrativ matndagi funksional o'rni aniqlanishiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" grant loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 25-yanvardagi 232/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, narrativ matnlar tuzilishida lisoniy vositalarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan yangi metod va yondashuvlar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillari narrativ matnlarining semantik tarkibini hosil qiluvchi vositalar sifatida aspektual va temporal kategoriyalarning ingliz va o'zbek narrativ matnlarida faollashadigan now, then, at the moment, hozir, o'shanda, ayni damda kabi temporal vositalarning turlari, ularning anaforik, kataforik, egzoforik vazifalari bilan bog'liq funksional-semantik jihatlari faollashuvi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 25-yanvardagi 232/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi narrativ matnlar muayyan vaqt davomida qo'llanilib, aspektual va temporal kategoriyaviy hodisalarni aniqlik va izchillik bilan ifodalashga xizmat qilishi haqida ilmiy tasavvurlar shakllantirilgan;

temporal va aspektual semantikaga oid ingliz va o'zbek narrativ matnlarida makon va zamon voqelanishini ta'minlovchi lisoniy birliklarning kataforik,

anaforik kabi deydik vazifalari natijalardan “Xalqaro huquq sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalarning o‘zbek tilidagi matnlari platformasini yaratish” nomli amaliy tadqiqot loyihasi (AL-7823051654) doirasida xalqaro shartnomalarning o‘zbek tilidagi matnlari bazasini shakllantirishda foydalanilgan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2024-yil 13-dekabrda 7/63118-4-02-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek tillaridagi huquqiy matnlardan ham keyingi tahlil jarayonida foydalanish rejalashtirilgan, bu esa zamon va aspekt semantikasi aniqligi hamda izchilligini shartnoma matnlarida aks ettirish muhimligi to‘g‘risida malakaviy bilimlarning idrok etilishiga yordam bergan;

ingliz va o‘zbek tillari narrativ matnlaridagi aspektual semantikani shakllantiruvchi birliklar pragmatik jihatdan presuppozitiv, deydik vazifalarni bajarishi, semantik jihatdan bog‘lovchi vosita ekanligini, fe‘l-kesimlarning narrativ gaplarda voqea-hodisalarni funksional xususiyatini namoyish etishi bo‘yicha olingan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-fevral kuni e’farga uzatilgan “Assalom Samarqand” va “Uchqun” teleko‘rsatuv ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-fevraldagi 01-07/48-son ma’lumotnomasi). Natijada, voqea-hodisalarning temporal va aspektual jihatdan o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning bir-birini to‘ldirish xususiyatlari yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalari e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta (3 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 138 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Narrativlikning semantik tadqiqi xususida**”, deb nomlanib, unda narrativlikning nazariy asoslari, narrativ matn tarkibini hosil qiladigan lisoniy vositalar, grammatik kategoriyalar, matn semantikasini

shakllantiruvchi til birliklari tahlili, grammatik vositalarning matndagi tamoyillarini aniqlash, diskurs til birligi sifatida universal va o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanishi, diskursning asosiy xususiyatlari masalalari, aspektual ma'nolarning diskursda ifodalanishi, aspektuallikda vaziyat turi ma'lumotining diskursda namoyon bo'lishi masalalarining nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Aspektual oppozitsiya xususiyatlari diskursda, ayniqsa, narrativlikda deysis muhim o'rin tutadi. Imperfektiv yoki perfektiv shakllarning tanlovi matndagi turli harakatlarning xronologik aloqalarini tahliliga ta'sir etadi. Xususan, "grammatik aspekt zamonga qarama-qarshi holda nutq vaziyatidagi tashqi deysitik bog'liqlikka qaram emas. U faqatgina voqea-hodisalarning ichki temporal xususiyatlariga refrensiya vazifasini o'taydi".⁵ Funktsional lingvistikada funktsional-strukturallilik, jarayon-natija, dinamiklik-turg'unlik, faollik kabi diskurs matn mezonlarini belgilashda qarama-qarshilikka asoslangan oppozitsion yondashuv yetakchilik qiladi⁶. Shunga ko'ra "matn-natija" tuzilishi va funktsional "diskurs-jarayon sifatida" ko'rinishi o'zaro muvofiq keladi.

Semantika va pragmatikaning narrativ matndagi o'zaro bog'liqligi bevosita aspektual ma'nolarni ishlatilishi, maqsad jihatlarini yoritishga yoki aspektual semantikani faollashuvini yoritishga xizmat qiladi. Matndagi semantik ma'no pragmatik implikatura orqali amalga oshiriladi.

Tilni pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi yetti xil ma'noda qo'llangan: 1. So'z muqobili; 2. Farazlardan o'lchami bo'yicha o'tadigan birlik; 3. Nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri; 4. Suhbat; 5. Nutqda so'zlovchi pozitsiyasi; 6. Lingvistik birliklardan foydalanish; 7. Matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar⁷. Diskurs atamasi subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek, stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko'rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. Amalda diskurs - bu matnning shakllanish usulidir. Shu nuqtayi nazardan G'.Mirsanov diskursni hosil bo'lishida temporal va atemporal vositalarning muhim o'rin tutishini qayd etadi⁸. Albatta, muallif mazkur vaziyatda temporal ravishlarga e'tibor qaratadi. Ammo narrativ tuzilmalarda temporallik semantikasi boshqa diskursiv vositalarga ham yuklatilishi mumkinligi oydinlashadi.

Diskurs tahlili matnning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari doirasida keng faollashadi. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya'ni strukturasi, semantik jihatdan mazmun-ma'no rejasiga, pragmatik jihatdan esa perlokutivlik xabar yetkazish mazmuniga ko'ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan iborat bo'lgan faoliyat sifatida tavsiflashda qo'llaniladi.

Aspektuallikning matndagi tanlovi tahlili shuni ko'rsatadiki, unda aspektuallik epistemologik subyekt ma'nosiga qaratilgan ma'noni aniqlaydi, hamda

⁵ Riemer N. *Introducing semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 308-330.

⁶ Пардаев А. *Прагматик тилшунослик: Ўқув-услубий кўлланма*. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети нашриёти, 2013. – 30 б.

⁷ Сафаров Ш.С. *Когнитив тилшунослик*. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 3.

⁸ Мирсанов Ф.Қ. *Юриш харакат фелларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари: Филол.фан.номз. .. дисс.автореф.* – Тошкент, 2018. – Б. 18.

narrativ subyektning xususiyatlariga, usuliga bo‘lgan yo‘lni ko‘rsatadi. Mazkur hollarda aspektuallik “semiotik usul”ni ifodalaydi⁹, deb ham hisoblash mumkin. Xususan, subyektning ikkilanishi, jura’tsizligi, qa’tiyatligi kabi semantik ma’nolar ham aspektuallikning bir ko‘rinishi bo‘lib, signifikatsiya va xususiyatlar diskursning turli tiplarida amalga oshiriladi¹⁰. Keltirilgan fikrlar, qarashlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, aspektual ma’nolar qamrovi fe’lning dinamiklik va stativlik xususiyatlaridan tashqari subyekt va obyekt xususiyatini ifodalovchi belgilarini ham qamrab olayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu hol aspektuallikning diskursda, pragmatik, kognitiv sathlarda tadqiq etilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Narrativ matnning xususiyatlari

Turi	Tavsifi
<i>Narrative material</i> (<i>narrativ material</i>)	narrativlik uchun zarur bo‘lgan matn xususiyatlari minimal tarkibini o‘z ichiga oladi
<i>Narrational activity</i> (<i>narrativ faoliyat</i>)	narrativ materialni taqdim etishga yoki tartibga soladigan narrator va uning nutqini o‘z ichiga oladi.
<i>Narrative drive</i> (<i>narrative boshqaruvchi</i>)	narrativ jarayonida hikoya va narrativ faoliyati uchun zarur bo‘lgan materialni belgilaydi.
<i>Linguistic material</i> (<i>lingvistik material</i>)	Narrativlikda voqea-hodisalar kechimini o‘zaro bog‘lovchi lisoniy elementlarni o‘z ichiga oladi .
<i>Pragmatic structure</i> (<i>Pragmatik tarkib</i>)	Narrativ matn mazmuni, maqsadi, narrator va o‘quvchini bir-birini tushunishga xizmat qiladigan omil.

Narrativlikka xos bo‘lgan tahlilning asosiy tamoyillari sifatida matn qurilishining strukturaviy talqiniga mantiqiy yondashuv hisoblanadi. Natijada, matn strukturasi til tizimi elementlarining o‘zaro tobeliklari yig‘indisidan iborat tizim sifatida shakllantirilgan informativ xarakterga ega matn nazarda tutiladi.

Narrativ matnni tarkibiy jihatdan shakllanishi va matndagi gaplarni bir-biri bilan bog‘lanishini ta’minlovchi deytik vositalar mavjud bo‘lib ularni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin: makondagi voqealarning ifodalanishida gaplarni o‘zaro bog‘lanishini ta’minlovchi *where, wherever, everywhere, anywhere* kabi bog‘lovchilar. O‘zbek tilida *-qayerda, shu yerda, -sa* qo‘shimchalari bilan amalga oshiriladi; temporal voqealar ifodalanadigan voqea va hodisalarni bildiruvchi narrativ matndagi gaplar. Ingliz tilida *until, till, after, before, as, as long as, as soon as, no sooner...than, hardly...when, scarcely...when, once, by the time, the moment, whenever, while, when, since* bog‘lovchilari yordamida amalga oshirilsa, o‘zbek tilida gap *-gach* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi; voqea va hodisalarni qay tarzda kechishini anglatuvchi matnni bog‘lanishi ingliz tilida *as, as if, as though* bog‘lovchilari orqali ifodalansa, o‘zbek tilida gap *-b, (-ib)* bog‘lovchilariga

⁹ Плу́нган В.А. Почему языки такие разные. – Москва: АСТ-ПИРЕСС КНИГА, 2010. – С. 8.

¹⁰ Плу́нган В.А. Введение в грамматическую семантику. Грамматические значения и грамматические системы языков мира: Учебник. – Москва: РГГУ, 2011. – С. 13.


tayaniladi; voqealarni intensional xususiyati matnda turli ifoda usullariga ega sanaladi. Ularning matndagi sintaktik bog‘lanishi ingliz tilida so that, in order that, in case, last, for fear that bog‘lovchilari bilan anglashiladi, o‘zbek tilidagi mazkur gaplar -sin, uchun qo‘shimcha va bog‘lovchisi yordamida yuzaga keladi; matn shakllanishida temporal, makon, intensional hodisalarni o‘zaro namoyishini sabab va maqsadlari ingliz tilida although, even though, though, despite the fact that, in spite of the fact that, even if, while bog‘lovchilari yordamida hosil bo‘lsa, o‘zbek tilida –chunki bog‘lovchisiga tayanadi. Natija ergash gapli qo‘shma gap ingliz tilida so + adj + that, so + adv + that, such a + adj + N + that, abstract noun + be + such that, such + a lot of + N + that, so + adj + (article) N + that, so many...that, so few...that, so much...that, so little that bog‘lovchilari bilan amalga oshiriladi. O‘zbek tilida shunday, -ki, natijada bog‘lovchi va qo‘shimchalari mazkur vazifani o‘taydi. Shart ergash gapli qo‘shma gap ingliz tilida if, if only, in the event that, unless, as long as, so long as, provided (that), providing (that), whether...or, but for bog‘lovchilari bilan anglashiladi, o‘zbek tilida ushbu gaplar -sa qo‘shimchasi orqali birikadi. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap ingliz tilida while, whereas bog‘lovchilar bilan kelsa, o‘zbek tilida - sa, qo‘shimchasini oladi. Faktiklik bilan bog‘liq ikkinchi hodisa bu natijaga erishganlik va erishmaganlik sanaladi. Ifodalanadigan hodisalarning o‘zgarishi narrativ voqelikning tugallanishi bilan bog‘liq bo‘lib, rezultativ harakat tarzi sifatida qaralsa, endi boshlangan hodisa inxoativ harakat tarzi, agarda subyekt ma‘lum harakatni amalga oshirishga harakat qilayotgan bo‘lsa, konativ harakat tarzi yoki o‘zgarish amalga oshish nazarda tutilsa tranzitiv harakatning ma‘lum davr jarayonida bo‘lishi durativ harakat tarzi sifatida baholanishi ta’kidlanadi. Narrativ matnda ushbu harakat tarzi turlari bir-biriga bog‘liq holda faollashadi. Ularning ba’zilari pragmatik vazifani bajarishi mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamon va temporallik hodisasi narrativ matnni shakllantiruvchi vosita sifatida”**, deb nomlangan. Mazkur bobda narrativ matn tahlili turli sathlarda, jumladan pragmatik, stilistik, semantik sathlarda tadqiq etilgan bo‘lsada, narrativlik tarkibini hosil qiladigan temporallik, aspektuallik kabi aspektlari nazariy jihatdan to‘laligicha tadqiq etilgan.

Narrativlikda qayd etilgan kategoriyalar tarkibi aspektual semantik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Mazkur vositalar bevosita temporallikka ham aloqador bo‘lib, ular zamon va makonning moslashishini ta’minlaydi. Bu borada R. Deklerk zamon shakllarini nazariy jihatdan matnga moslashuvining quyidagi turlarini taklif etadi: 1) vaqtni vaziyatga aloqador ifodasi; 2) vaziyatni sodir bo‘lish payti; 3) voqelikni tavsiflovchi referensiya vaqti; 4) yo‘nalish payti. Mazkur turlar orasida dastlabki ikkitasi nutq paytiga aloqador lahzalik ma’noni anglatadi Keyingi turlar ko‘proq voqelikni davomiyligi yoki durativligini o‘zida mujassam etadi¹¹.

Narrativ matnda ma‘lum voqelikni ifodalanishi aspektual semantika doirasida tahlilga tortilishi mumkin. Chunki narrativ matnda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar har biri semantikasi alohida ko‘rib chiqiladi.

¹¹ Declerck R. The grammar of the English tense system: A comprehensive analysis, Volume 1. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2004. – P. 154.



1-rasm. Narrativ matni ifoda tarkibi

Narrativ matnlarda zamon, makon va vaqt kechinmalari muhim o'rin tutadi. Jumladan, zamonning temporal semantik maydonini hosil qiluvchi turli dinamik vaziyatlarni (fe'l leksemasining "ichki vaqt ko'rsatgichi") tasvirlash usuli sifatida talqin etiladi. Temporallik narrativ matnda voqea-hodisa, vaziyat va harakatning bajarilishida predikat bajargan harakat holatni semantik (aspektual) turini belgilovchi ko'rsatgichlar tarzida qo'llaniladi.

Narrativ matn semantikasi zamon, makon, aspektuallik kabi lisoniy kategoriyadan tashkil topishi, uni mazkur kategoriyalar talqiniga qaratilgan tadqiqot yondashuvlari doirasida ham ko'rib chiqishga imkon yaratadi. Bu Z.Vendler tomonidan taqdim qilingan fe'llarning taksonomik turlarini e'tibordan chetda qoldirmaslikdan dalolat beradi. Z.Vendler predikatlarni activity (faoliyat), state (holat), accomplishment (tugallanganlik), achievement (natija) kabi turlarga ajratadi¹². Ushbu predikat turlari quyidagi ma'nolarni qamrab oladi. Activity-temporal jihatdan davomli harakat, states-temporal jihatdan cheklanmagan holat; accomplishment durativ, temporal cheklangan harakat; achievements-temporal cheklangan, natijasi ma'lum predikatlar. Mazkur ma'nolar faqatgina predikat semantikasi bilan cheklanmaydi. Qayd etilgan ma'nolar bevosita kontekst, ba'zan matn mazmuni doirasida aniqlanadi.

Narrativ matnda zamon va aspektuallikning semantik ifodasi juda murakkab bo'lib, vaqt ko'rsatkichlari faqatgina predikat va fe'lli frazalarga taalluqli bo'lmasdan, matnda ishtirok etadigan boshqa turdagi birliklarning ya'ni o'tli frazalarni (*ex-mayor*, *husband-to-be*, etc.), sifat ishtirok etadigan birliklarni

¹²Vendler Z. Verbs and Times. – Linguistics in Philosophy. – Ithaca, NY: Cornell University Press, 1967. – P. 97.

(former, future, most recent, etc.) yoritishga xizmat qiladi. Narrativ matndagi temporal ravishlar yordamida voqea-hodisalar kechimi paytiga aniqlik kiritiladi.

Narrativlikda ifoda turi avtonom bo'lib, qo'shimcha ma'lumot uchun xizmat qiladi. Matndagi vaqt, zamon ko'rsatkichlari tadqiqi bevosita fe'l semantikasiga bog'liq sanaladi. Ammo zamon, aspektuallik kabi vositalar matnning semantik bog'liqligini ta'minlaydi. Zamon, aspektning narrativdagi ifodasi faqatgina temporal xususiyatga ega bo'lmasdan lokativlikni anglatuvchi ravishlar bilan bog'liq faollashadi. Ularning hamkorligi fe'lning zamon va aspekt semantikasini ochib berishda muhim o'ringa ega. Umumiy ma'noda temporal ravishlar leksik va sintaktik ko'rinishga egadir. Temporal xususiyatga ega leksik adverbiallarga quyidagilar tegishli hisoblanadi: already, always, earlier, eventually, forever, formerly, frequently, henceforth, hereafter, heretofore, immediately, lately, later, Mondays, mornings, never, now, nowadays, occasionally, often, once, presently, recently, sometimes, soon, then, thenceforth, thereafter, thereupon, today, tomorrow, yesterday, yet...

O'zbek tilida shu kabi temporal vositalarga har doim, har kuni, yaqinda, o'tmishda, oldin, darhol, shu onda, doim, gohida, tezda, bugun, kecha, ertaga, so'ng, o'tmishda va hakazolar kiradi.

Nutq momentidan oldin sodir bo'lgan barcha vaziyatlar temporal jihatdan ma'lum vaqt jarayonida joylashgan bo'lib, narrativlik hodisasi yuzaga keladi. Zamon shakllari bilan berilgan ma'lumot hodisaning davomiy yoki ketma-ket ekanligini anglatadi. O'tgan zamon shakli voqea hodisalar kechimini ta'minlovchi asosiy temporal vosita sifatida faollashadi, hamda temporal deysis sifatida baholanadi va narrativ tarkibni yuzaga keltiradi.

Narrativ matndagi voqea-hodisalar vaqtini ifodalovchi adverbiallar o'zlarining sintaktik pozitsiyasiga ko'ra va boshqa adverbiallar bilan birikishi orqali ikkita xususiyatga ega bo'lishadi. Ularning birichisi berilgan gap doirasida bo'lsa-da, keyingi voqelikka ishora qiladi va shu tarzda voqea-hodisalarni bog'laydi. Ular odatda intonatsion tarkib bilan farqlanadi. Mazkur vaziyatlarda narrativlikda voqea-hodisalar ketma-ketligi kuzatiladi. Aspektuallik har bir gapda alohida tahlilga tortiladi. *Masalan: Now, there were two possessions of the James Dillingham Youngs in which they both took a mighty pride. One was Jim's gold watch that had been his father's and his grandfather's. The other was Della's hair [O'Henry, 13].*

O'g'li uylanishi bilan xotininikiga ko'chib ketdi. Shundan keyin Klara xola asabiyroq bo'b qoldi.

Eshik tagida o'tirib, uzzukun hammaga dashnom bergani-bergan [O'tkir Hoshimov, 77]. Ushbu misolda voqea-hodisalar ketma-ketligi "shundan keyin" temporal birikma referensiya vazifasini bajargan.

Nazariy jihatdan narrativ matn tarkibidagi adverbiallar turli pozitsiyalarida kelishi mumkin. Bu narrativ matndagi ravishlarning ma'no ko'lami va matn tarkibiga bog'liq. Narrativ matn tarkibidagi voqea-hodisani takroriylikiga ishora qiluvchi temporal vositalar: *gohida, ba'zan, har doim, har kun, kunora, tez-tez, har safar* va boshqalar.

Zargarov odatdagidek ishga boradi-yu, uyqusirab o'tirib yo tentirab yurib qaytib keladi. Goho juda barvaqt qaytadi, goho juda kech. Qurilishda nimalar bo'layotganidan bexabar, qo'li ishga bormaydi, kunlari qandaydir tuman ichida o'tayotgandek. Kechalari uyqumi, bosinqirashmi, allaqayoqdagi chavalgan hazin o'ylar qiynaydi uni, bu o'ylar orasida esa har safar Fotima qalqib chiqadi-da, ro'parasida turib oladi. Zargarov tongga yaqin sal to'lg'anib tinganda uning tiniq, qoracha badanini ko'ksi bilan sezadi-da, sovuq terga botib o'nidan turib ketadi. Borib, ostonadagi paqirdan suv ichadi [Asqad Muxtor, 137].

Narrativ matndagi voqea-hodisani davomiyligini ko'rsatuvchi birliklar-soatlab, kun bo'yi, kun davomida, oylab, yillab va hokazo. O'zbek tilida narrativ matnda zamon ifodasi aspektual semantika bevosita fe'l qo'shimchalari, nominativ birliklar yordamida ham amalga oshiriladi.

Narrativ matnda aspektual semantikani biror harakat yoki voqea-hodisani tugallanganligi hamda tugallanmaganligini ta'minlaydi. Ingliz va o'zbek tillari narrativligida aspektuallik o'zining to'laligiga kategorial belgilari bilan namoyon bo'lmasligi mumkin. Bunga sabab, ushbu tillarda narrativ matnda voqea-hodisalar ketma-ketligi butun bir vaziyat tarzida ifodalanadi, hamda vaziyat ichidagi alohida voqeliklar tugallanganligi yoki tugallanmaganligini belgilash yoki to'laligiga vaziyatni tugallanganligi bilan bog'lash masalasi yuzaga keladi.

Aspektual va temporal kategoriyalarning narrativ matnda faollashuvi bevosita temporal deytik vositalarning tizimli qo'llanilishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tili narrativ matnida zamon, taksis va aspekt kategoriyalari eksplitsit va aniq shakllarga asoslangan holda namoyish etiladi. Deytik ko'rsatgichlar nutq vaziyati bilan bog'liq zamon tushunchasini farqlaydi, aspektual munosabatlarda esa voqea-hodisalar kechimini, ketma-ketligini aniqlashtiruvchi vazifalarni bildiradi.

Ingliz tili narrativ matnda diskurs-pragmatik funksiyasining temporal birliklar bilan bog'liq xususiyatlarini quyidagi xususiyatlarda kuzatishimiz mumkin:

1. Temporal asosning mavjudligi; Bunda voqea-hodisa vaqti aniq belgilangan bo'ladi;

2. O'tgan zamonda voqea-hodisalar kechimining intensiv rivojlanishi. Temporallik jihatdan ma'lum bosim yuzaga keladi;

3. O'tgan zamonda voqea-hodisalar takrorlanishi, ketma-ketligi mazkur vaziyatda iterativlik semantikasi yuzaga keladi;

4. O'tgan zamonda voqea-hodisalarni bir maromda kechishi, mazkur vaziyat durativ, davomli, iterativ vaziyatlarni hosil qiladi;

5. O'tgan zamonda voqea-hodisalarni birin ketin sodir bo'lishi, bunda taksis semantikasi faollashadi, Past Perfect shakli muhim o'rin tutadi;

6. Voqea-hodisalarni nutq vaziyatiga teng kechimi mazkur vaziyatda ham iterativlik dominant xususiyat sanaladi.

O'zbek tili narrativ matni diskursiv-pragmatik xususiyatlari va temporal munosabatlarni quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin

1. Voqea-hodisalarninigi aniq payti temporal asosga ega;

2. Nutq vaziyatiga nisbatan voqea-hodisalarninig o‘tgan zamondagi kechimi yaqinda yoki uzoq o‘tmishda sodir bo‘lganligi farqlanadi. Bunda zamon shakllari, to‘liqsiz fe’llarning faollashuvi kuzatiladi;

3. O‘tgan zamonda voqea-hodisalar ketma-ketligi, takrorlanishi ko‘makchi fe’llar semantikasiga bog‘liq;

4. O‘tgan zamondagi davomiylik va durativlik temporal ko‘rsatkichlar hamda diskursiv-pragmatik omillarga ko‘riladi;

5. Hozirgi zamondagi narrativ ifoda odatiylik semantikasini yuzaga keltiradi.

2-jadval

Temporal vositalarning narrativ matndagi diskursiv-pragmatik mazmuni.

	Ingliz		O‘zbek
1	Zamondagi aniq paytga ishora qiladi	1	Voqea-hodisalar kechimini nutq paytiga nisbatan uzoq yoki yaqin o‘tmishda sodir bo‘lganligiga aniqlik kiritadi
2	Zamonda voqea-hodisalar takrorlanishiga aniqlik kiritadi	2	Zamon shakllariga ishora qiladi
3	Voqea-hodisalar kechimiga aniqlik kiritadi	3	Voqea-hodisalar takrorlanishiga aniqlik kiritadi
4	Voqea-hodisalar kechimini nutq momenti bilan bog‘laydi	4	Odatiy va davomiy harakatlarni farqlashga xizmat qiladi
5	Voqea-hodisalarni taksis semantikasini faollashtiradi	5	Voqea-hodisalarning ketma-ket joylashuvini ta’minlaydi

Albatta vaqt va temporal hodisalarning aloqadorligi matndagi pragmatik hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatlar narrativ matnda temporal birliklarning ifodalanish jarayonining asosini, vaqt kechimga ishora qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Temporal birliklarning deyktik semantik maydoni va ularning pragmatik asosi**” tarzida nomlangan bo‘lib, narrativ matn tahlili semantik va pragmatik faktorlarga bog‘liqligi tahlilga tortilgan. Narrativ tasvir turli tipdagi vaziyatlarning mazmunini ochib beradi. Narrativ tasvirdagi lavhalar hodisa va holatlarni qamrab oladi. Tasviriy usullar esa holat va davomli hodisalar bilan aloqadorlikga ega. Shuning uchun ham “aspektual ma’lumot narrativ matn tahlili nazariyasida kodlashadi”¹³.

